

**MIKOZLARGA MIKROBIOLOGIK MIKROSKOPIK TASHXIS
QO‘YISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Rajabov Shahzod Oqbo‘ta o‘g‘li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Talabalari

Daminova Marjonaxon Iskandar qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Talabalari

Jurakulova Durdona Shuxratovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Talabalari

ANNOTATSIYA

Ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi kasallik qo‘zg‘atuvchi parazit zamburug‘larning odam va hayvonlarda kasallik qo‘zg‘atishi, ularni mikroskopik tekshirish usullarini o‘rganishdan iborat edi. Shuningdek, mikozlarning klassifikatsiyasi, klinik belgilariga qarab guruhlarga bo‘linishini ham o‘rgandik.

Kalit so‘zlar: Mikoz, keratomikoz, epidormomikoz, subkutan mikoz, fasiya, rangli lishay, qora lishay, qora p’edra, epidermofit, mikroskopiya, trixofitiya, favus.

Kirish. Hozirgi vaqtida 400 dan ortiq kasallik chaqiruvchi zamburug‘lar aniqlangan bo‘lib, mikoz kasalliklarini keltirib chiqaradi. Kasallik keltirib chiqaruvchi zamburug‘larning ro‘yxati yildan yilga ortib bormoqda. Kasallik keltirib chiqaruvchi zamburug‘lar odam va hayvonlarga turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ular o‘tkir va surunkali, yuzaki, chuqur teri va shilliq qavatlarda doch tirnoqlarda mikozlarni qo‘zg‘atadi. Shuningdek, taloq, jigar, suyak va bo‘g‘imlar, ko‘rish va eshitish organlari, markaziy nerv tizimi zamburug‘lar bilan kasallandi. Mikozlarning guruhlarga bo‘linishi (klassifikatsiyasi)

Mikozlar zararlaydigan joyiga qarab quydagi asosiy guruhlarga bo‘linadi

- Yuzaki mikozlar (keratomikozlar) – soch va epidermisning shox qavatini zararlaydi.

- Dermatomikozlar (epidermomikozlar) - epidermis , soch tirnoqlarni zararlaydi.

- Teri osti yoki subkutan mikozlar - teri ,teri osti klichatkasi ,fassiya, ba’zida suyaklarni zararlaydi.

- Tizimli yoki chuqur mikozlar - ichki organlarni zararlashi bilan tafsiflanadi, ko‘pincha turli to‘qimalarga ko‘plab tarqoq patologik jarayonlarni ko‘plab keltirib chiqaradi.

- Opportunistik mikozlar, kasallik qo‘zg‘atuvchi shartli patogen zamburug‘lardir.

Zamburug‘larni oziq – ovqat mahsulotlarida o‘sib rivojlanish jarayonlarida hosil bo‘ladigan zaharlar bilan (mikotoksinlar) odam va hayvonlarni zaharlanishiga ko‘ra mikotoksikozlar alohida guruhlarga bo‘linadi.

Klinik belgilariiga qarab mikozlarni guruhlarga bo‘linishi quyidagi jadvalga keltirilgan

Jadval

Mikoz qo‘zgatuvchilar	Zamburug‘larning nomlanishi	Qo‘zg‘atgan kasallik nomi
Yuzaki mikoz qo‘zg‘atuvchilar (keratomikozlar)	Malasseziya furfur	Rangli lishay
	Exophiala wersenskii	Qora lishay
	Piadraia notae	Qora p’edra
	Trichosporon beigelii	Oq p’edra
Dermatomikoz qo‘zg‘atuvchilar	Antronofil dermotofitlar:	
	Epitermophiton floccosum	Epidermofit
	Mikrosporum audouinnii, Microsporum ferrugineum	Mikrocporiya
	Trichophyton toncurans, Trichophyton violaceum	Trixofitiya
	Trichophyton mentagrophytes var. interdigitale	Tovon, tirnoq epidermofiti

	<i>Trichophyton rubrum</i>	Rubrofitiya (qizil zamburug‘)
	<i>Trichophyton schoenleini</i>	Favus (Qo‘tir)
	Zoofil dermatofitlar	
	<i>Microsporum canis,</i> <i>Mgallinae</i>	Microsporiya
	<i>Trichophyton verrucosum,</i> <i>T.mentagrophytes</i> var. <i>mentagrophytes</i> , <i>T.equinun</i>	Trixofitiya
	Geofil dermatofitlar	
	<i>Microsporum cookei,</i> <i>M.gypseum</i> , <i>M.nanum</i>	Microcporiya
Teriosti yoki subkutan mikozlar	<i>Sporothrix schenckii</i>	Sporotrixoz
	<i>Fonsecaea compacta</i> , <i>Fonsecaea pedrosoi</i>	Xromoblastomikoz
	<i>Exophiale</i> , <i>Phialaphora</i> <i>Wangie ela</i> , <i>Bipolars</i>	Feogifomikoz
	<i>Aureobacidium</i> , <i>Cladosporium</i> , <i>Curvilariya</i> , <i>Phoma Pseudallescheria</i> <i>boydii</i> , <i>Madurella grisea</i> , <i>Phialophora cryanescens</i> va boshqalar	Misetema
Tizimli yoki Chuqur mikozlar	<i>Mistoplasma capsulatum</i>	Gistoplazmoz
	<i>Blastomyces dermatitidis</i>	Blastomikoz
	<i>Paracoccidioides brasiliensis</i>	Paracoccidioidomikoz
	<i>Coccidioides immitis</i>	Koksidioidomikoz
	<i>Cryptococcus neoformans</i>	Kriptokokkoz
Opportunistik mikoz qo‘zg‘atuvchilar	<i>Candida</i> spp	kandidoz
	<i>Mueor</i> spp . <i>Rhizopus</i> spp	Zigomikoz
	<i>Aspergillus</i> spp	Aspergillez
	<i>Pencillium</i> spp	Penisillioz
Mikotoksikoz qo‘zg‘atuvchilar	<i>Fusarium</i> spp, <i>Aspergillus</i> spp, <i>Penicillium</i> spp va boshqalar	Mikotoksikoz

Mikozlarga mikrobiologik tashxis qo‘yishning umumiy (bakterioskopik)xususiyatlari

Tadqiqot uchun quydagicha materiallar olinadi:

Zamburug‘ qismlari yaxshi rivojlangan joydan namuna olinadi. Zararlangan sochlardan pinset orqali, silliq teridan temiratkilardan skalpel bilan qirib olinadi.

Zararlangan tirnoqlardan qaychi bilan kesib olinadi. Shilliq qavatlardan esa shpatel bilan qirib olinadi. Qolgan barcha materiallar odatda bakteriologik usulda tekshiriladi. Zamburug‘larni tekshirish uchun mikroskopik usuldan keng foydalilanadi. Mikroskopik metodni qo‘llash uchun bo‘yalmagan (nativ) yoki bo‘yalgan preparatlar tayyorlanadi. Agar tekshirilayotgan materialimiz suyuq bo‘lsa undan bo‘yalmagan surtma tayyorlaymiz. Yorituvchi suyuqlik bilan (glisirin spirt aralashmasi) mikroskop ostida tekshiramiz. Tekshirilayotgan materialimiz qattiq bo‘lsa 10-20% li ishqor eritmasi bilan ishlov beriladi. (ko‘pincha KOH ishqori). Masalan; teri va teri hosilalari (tirnoq, sochlар)

Nativ preperatlar: tekshirilayotgan materialdan 1 tomchi buyum oynasiga tomiziladi. Unga ligol yoki glisirinni spirtli eritmasi qo‘shiladi, qoplovchi oyna bilan qoplanadi va fazo-kontrast yoki yorug‘lik mikroskopida tekshiriladi.

Bo‘yalgan preparatlar: Oddiy usulda surtma tayyorlanadi. Fiksatsiya faqat suyuq fiksator bilan qilinadi; Tram, Sil-Nelsen, Romanovskiy-Gimza usulida yoki maxsus materiallar bilan bo‘yaladi.

Xulosa. O‘rganishimiz shuni ko‘rsatdiki, patogen zamburug‘lar odam va hayvonlarda turli kasalliklarni qo‘zg‘atib og‘ir oqibatlarga olib keladi. Zamburug‘larni patogen materiallardan ajratib olib mikroskopik tahlil qilish usullarini o‘rganib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Л.В. Лагун. *Методы микробиологических исследований. Учебно-методическое пособие для студентов 2-3 курсов лечебного и медико-диагностического факультетов медицинских вузов. Гомель . Гом.ГМУ-2016*
- 2.Vakhidova A.M., Khudoyarova G.N., Mamedov A.N. *The change in the concentration of phospholipids in experimental infection of lambs with echinococcosis and paecilomyces // World Bulletin of Public Health. – 2022. - № 7. P. 33-35.*
3. Agnese Colpani, Olesya Achilova, Gian Luca D'Alessandro, Christine M. Budke, Mara Mariconti, Timur Muratov, Ambra Vola, Arzu Mamedov, Maria Teresa Giordani, Xusan Urakov, Annalisa De Silvestri, Uktam Suvonkulov, Enrico Brunetti and Tommaso Manciulli. *Trends in the Surgical Incidence of Cystic Echinococcosis in Uzbekistan from 2011 to 2018 // Am. J. Trop. Med. Hyg. – 2021. – 106(2). P. 724-728.*
4. Boltaev K.S., Mamedov A.N. *Comparative study of ecological groups of hippohaerhamnoides Phytonematoids growing in the zarafrshan oasis // Galaxy international interdisciplinary research journal. – 2021. - № 9(9). P. 101-104.*
5. Mamedov A.N. *Evaluation of the effectiveness of the treatment of genital herpes in adults // Eurasian journal of medical and natural sciences. – 2022. - № 2-3. P. 55-58.*
6. Сувонкулов У.Т., Мамедов А.Н., Ачилова О.Д., Саттарова Х.Г. Эхинококкоз печени: случай из практики // Вестник врача.-2021.- № 1(98). С. 169-172.
7. Сувонкулов У.Т., Ачилова О.Д., Анваров Ж.А., Мамедов А.Н., Муратов Т.И. Прогноз заболеваемости кожным лейшманиозом на основе математического моделирования в Узбекистане // Биология ватиббиётмуаммолари. – 2020.- № 3(119). С. 96-99.
8. Юсупов М. И., Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш. Об изменении свойств кишечных палочек при поносах у детей // Экономика и социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 611- 616.13. Mamedov A.N. *Evaluation of the effectiveness of the treatment of genital herpes in adults // Eurasian journal of medical and natural sciences. – 2022. - № 2-3. P. 55-58.*
9. Mamedov A.N. *Methods of treatment and diagnosis of lichen planus // Eurasian journal of medical and natural sciences. – 2022. - № 2-3. P. 59-61*